

Fir'avnning nodonligi



14:00 / 20.03.2022 2830

Fir'avn Musoning ishiga qattiq ahamiyat berganidan halovati yo'qoldi, uyqusi o'chdi. Yegan-ichgani o'ziga tatimay qoldi. Saroy a'yonlari Fir'avn g'azabini yana alangaltdilar:

- «(Ey Fir'avn), Muso va qavmining yerda buzg'unchilik qilib yurishiga hamda seni va xudolaringni tark etishiga qo'yib berasanmi?!».

G'azablangan Fir'avn dedi;

- «Ularning o'g'illarini o'ldirib, ayollarini tirik qoldirajakmiz. Albatta biz ularning ustida g'olibdirmiz».

Fir'avn Bani Isroil va Misr ahlini Musodan ajratib olish uchun barcha makr-hiylalarni qo'lladi. Fir'avn qavmiga nido qilib:

- Ey qavmim! Ko'rmayapsizlarmi, Misr mulki va oyoqlarim tagidan oquvchi mana bu anhorlar meniki emasmi?! Men mana bu xor, gapini ochiq bayon qila olmaydigan kimsadan yaxshi emasmanmi?

«Fir'avn vazminlik va bosiqlik bilan;

«Ey odamlar, men sizlar uchun o'zimdan boshqa biron iloh borligini bilgan emasman».

Go'yoki ko'p taftish qilib, ko'p fikrlab, qavmiga nasihat qilaroq, beaql va jununlikda:

Bas sen ey Homon, loyni pishirib, (g'isht quyib) men uchun bir baland qasr bino qil, shoyadki men (uning ustiga chiqib) Musoning xudosini ko'rsam. Albatta men uni yolg'onchi kimsalardan deb o'ylamoqdadirman».

Homon ustalarni yig'ib loyni pishirib baland qasr qurishga kirishdi. Lekin ojiz inson bolasining chiranishlari qaerga ham yetardi?! Homon ham, ustalar ham holdan toyishdi. Loy, g'isht tamom bo'ldi.

Fir'avn oy nari tursin bulutga ham yetmadi. Quyosh nari tursin oyga ham yetmadi. Yulduzlar nari tursin quyoshga ham yetmadi. Osmonlar nari tursin yulduzlarga ham yetmadi. Fir'avn noumid bo'ldi, xijolat chekdi va ojiz qolib o'tirib qoldi. Bechora Fir'avn! Nahot u yuksak osmonlaru yerni Alloh taolo yaratganini bilmasa?!

Osmonlardagi narsalaru yerdagi narsalar, ularning orasidagi narsalaru yer ostidagi narsalar Unikidir.

Fir'avn Muso alayhissalomni o'ldirishdan boshqa yo'l topa olmadi. U «Musu yer yuzida buzg'unchilik, fasod tarqatyapti», deya hujjat keltirdi. «Fir'avn dedi: «Meni qo'yinglar, Musoni o'ldiray. (ya'ni) u Parvardigoriga duo-iltijo qilsinchi, unga najot berarmikin. Darhaqiqat men (Musu) sizlarning diningizni o'zgartirib yuborishidan yoki yer yuzida buzg'unchilik avj oldirishidan qo'rqmoqdaman».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad